

## **Sohibqiron Amir Temur-buyuk bunyodkorlik siymosi.**

**Qovulov Jo‘rabek-tarix** fakulteti  
Tarix o‘qitish metodikasi 2-kurs talabasi  
**Ilmiy rahbar- dots. F.Aqchayev**

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan buyuk bunyodkorlik ishlari natijasida yaratilgan bog‘lar, shaharlar va qal‘alar to‘g‘risida ma‘lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Bunyodkorlik siymosi, Amir Temur, bog‘lar, Ibn Xaldun, bog‘i Baland, bog‘i Behisht, bog‘i Shamol, bog‘i Chinor,

### **Annotation:**

This article provides information about the gardens, cities and castles created by Sahibkiran Amir Temur as a result of great creative work.

**Keywords:** Image of Creativity, Amir Temur, Gardens, Ibn Khaldun, High Garden, Garden of Paradise, Garden of Wind, Garden of Plane,

### **Аннотация:**

В данной статье представлена информация о садах, городах и замках, созданных Сахибкираном Амиром Темуром в результате огромного творческого труда.

**Ключевые слова:** Образ Творения, Амир Темур, Сады, Ибн Халдун, Высокий сад, Райский сад, Сад Ветра, Сад Плоскости,

Insoniyat tarixida barcha jabhada adolatni ustun bilgan hukmdorlar tarixiga qiziqish hamisha katta bo‘lgan. Ana shunday zotlardan biri – buyuk bunyodkor, ilm-fan homiysi, yuksak vatanparvar, o‘zi barpo etgan ulug‘ saltanatni “Temur tuzuklari” dek odilona qonunlari bilan mustahkamlagan shavkatli hukmdor, yengilmas sarkarda Amir Temurdir.<sup>1</sup> Buyuk bobokalonimiz, nafaqat, O‘rta Osiyo tarixida balki, butun

---

<sup>1</sup> “Amir Temur chet elliklar nigohida”, G‘afur G‘ulom nashriyoti. Toshkent – 2016, 11-bet

dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan tarixiy shaxs sifatida alohida hurmat va ehtiromga sazovor bo'lib kelmoqdalar. Amir Temur haqidagi asarlar u hali tirikligidayoq yozila boshlangan va to hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. U haqida faqat Sharq olimlari va tarixchilari emas, Yevropa tadqiqodchilari ham salmoqli ilmiy ishlar qilib kelishmoqda. Xususan, Sharq tarixchilaridan Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi", Ibn Xaldunning "Amir Temur haqidagi esdaliklari", G'iyosiddin Ali Yazdiyning "Kitobi ro'znomayi g'azovoti Hindiston", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Fosih Xavofiyning "Temurnoma" (Jangnomayi Amir Temur ko'ragon), Ibrohim Mo'minovning "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" nomli risolasi, G'arb tarixchi olimlaridan Perondinoning "Skifiyalik Tamerlanning ulug'vorligi", Pero Meksikaning "Buyuk Temur tarixi", Ispan elchisi Gonsales de Klavixoning "Esdaliklari", Xristofor Morloning "Buyuk Temur" dramasi, Marsel Brionning "Menkim, sohibqiron – jahongir Temur", Hilda Hukhemning "Yetti iqlim sultoni" nomli bu asarlari Amir Temur haqida yozilgan asarlarning bir qisminigina tashkil etadi, xolos. To hozirgi kunga qadar Amir Temur va Temuriylar haqida 33 ta mamlakatda 500 dan ziyod chet ellik tadqiqotchilarning asarlari chop etilganligi, Amir Temur shaxsiga bo'lgan qiziqishning qanchalik kuchli bo'lganligidan dalolat beradi.

Amir Temur ibn Tarag'ay Muhammad hijriy 736-yilda, sha'bon oyining 25-kunida (milodiy 1336-yil, 8-aprel) Shahrisabzdan 13 chaqirimcha keladigan Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi Amir Tarag'ay bahodir davlatmand kishi bo'lib, Bayonqulixon saltanatida katta mavqega ega bo'lgan. Amir Temurning onasi Teguna xotun (Tegina Begim Moh) esa o'z davrining g'oyat katta mavqega ega bo'lgan ayollaridan biri bo'lgan.<sup>2</sup> Amir Tarag'ayga Shayx Zayniddin hali o'gli tug'ilmasidanoq uning yetti iqlimni egallashini va u yerlarda muqaddas islom dinini yoyishini bashorat qilgan. Shayx Amir Tarag'ayga yana o'g'li tug'ilganidan so'ng uni tarbiyasiga qattiq turishini, ilm va hunar o'rgatishni, Qur'oni Karimni yodlatishni buyuribdi. Bu voqealardan bir yil o'tib Amir Tarag'ayning o'g'li dunyoga kelgan, unga Shayx Zayniddinning maslahatiga ko'ra Temur ismi berilgan. Shu ondan

---

<sup>2</sup> Fosih Xavofiy, "Temurnoma" (Amir Temur Ko'ragon jangnomasi), Cho'lpon nashriyoti. Toshkent – 1990, 17-bet

boshlab otasi o'g'lining tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lgan. Amir Temur juda zehni bola bo'lib ulg'aya boshlagan, u hali juda yoshligidan otasi uni Alibek ismli muallimga savod chiqarishi uchun topshirgan. Amir Temur ham o'ng qo'lda ham chap qo'lda yoza olgan, shuningdek, uning xotirasi juda kuchli bo'lgan. U bir marta eshitgan yoki o'qigan narsasini yoddan aytib bera olgan. Bunday kuchli xotiraga ega bo'lganligi uchun u Qur'oni Karimni qiyinchiliksiz to'lig'icha yodlab olgan. Amir Temur keyingi ta'limni Shayx Shamsiddindan ola boshlagan va savodini ana shu yerda to'lig'icha chiqargan. Shayx Shamsiddin uni Qur'onni to'lig'icha yod olishga va ma'nosi benuqson sharhlashga o'rgatgan. Amir Temur aynan shu yerda o'z savodini to'laligicha chiqargan. So'ngra, otasi Amir Temurni Samar tarxon ismli mohir qilichboz ustaga shogirdlikka bergan. Aynan Samar Tarxon Amir Temurning o'ta mohir qilichboz bo'lib yetishishida o'zining beqiyos hissasini qo'shgan shaxs hisoblanadi. Samar Tarxon Amir Temurga ikki qo'lda ham birday qilich tutib jang qilish sir-asrorlarini o'rgatgan. Chunki jangda dushman doimo o'z raqibini o'ng qo'lini jarohatlashga harakat qiladi, shunday sharoitda chap qo'l bilan jang qila olmagan jangchi tirik murda hisoblanadi. Amir Temurning chap va o'ng qo'lda birday jang qilish qobiliyatini egallashi uni kelajakdagi janglarda ko'p bor hayotini saqlab qolgan. Va Amir Temur ustoz Samar Tarxon qo'lida o'z zamonasining nihoyatda mohir qilichbozi bo'lib ulg'ayadi.<sup>3</sup> Amir Temur endigina 19 yoshga to'lgan mahali Movarounnahrning yirik amirlaridan biri Samarqand hukmdori Amir Yaxmakning ko'p ming kishilik qo'shiniga sarkardalik qila boshlagan. Garchi Amir Temur juda yosh bo'lishiga qaramay bunday mas'uliyatli vazifani uddaburonlik bilan ado eta oldi. U o'zigacha bo'lgan barcha buyuk sarkardalarning harbiy ilmini va mahoratini sabot bilan o'rganganligi bois ancha zaif bo'lgan Amir Yaxmak qo'shinini qisqa fursatda kuchli jangovar tayyorgarlikka ega bo'lgan armiyaga aylantirdi.<sup>4</sup> Bu say-harakatlar tez orada o'z samarasini berdi va Amir Temur boshliq Samarqand qo'shini ulkan g'alabalarga erisha boshladi. Erishilgan g'alabalar ovozi

---

<sup>3</sup> Marsel Brion, "Menkim sohibqiron – jahongir Temur", Yangi asr avlodi nashriyoti. Toshkent – 2018, 25-bet

<sup>4</sup> Marsel Brion, "Menkim sohibqiron – jahongir Temur", Yangi asr avlodi nashriyoti. Toshkent – 2018, 29-bet

Movarounnahrning barcha hududlariga yoyila boshladi, shu lahzalardan boshlab Amir Temur zamonasining siyosiy kurash maydoniga katta qadamlar bilan kirib keldi. Bir necha yillik kurashlar natijasida Amir Temur 1370-yilda Movarounnahrning Amiri sifatida rasman tan olinadi. Unga “Sohibqiron” nomi ham bejiz berilmagan, uning zaminida katta ma’no yashiringan edi. “Sohibqiron” – “Yulduzlar burji hukmdori” degan ma’noni anglatgan, zero, o’sha vaqtda yulduzlar burji va ijtimoiy munosabatlar o’zaro birgalashib, Amir Temurning foydasiga xizmat qilmoqda edi.<sup>5</sup> Sohibqiron o’z nomiga monand ravishda poyonsiz sarhadlarni egallashda davom etgan, u 1370-yildan to 1404-yilgacha 30 dan ziyod yirik yurishlarni amalga oshirib barchasida g’alaba qozongan. Bunda Amir Temurga g’oyat ulkan qo’shini yordam bergan. Qo’shinning asosiy qismini ko’chmanchilardan tuzilgan otliq qo’shin tashkil etgan, ular nihoyatda kuchli, chidamli va mergan kamonchilar bo’lgan.<sup>6</sup> Qo’shinda suvoriylardan tashqari o’troq aholi vakillaridan iborat bo’lgan zarbdor piyoda qismlar, zamonaning eng yangi texnikalari: qal’a devorlarini parchalab tashlaydigan “palaxmon” (manjaniq – bir tonnagacha toshlarni uloqtirish quvvatiga ega bo’lgan) lar, Xitoy poroxida o’qlanadigan ibtidoiy to’plar, jangovar kemalar, 25 tadan 100 tagacha jangovar fillar (Hindiston zabt etilganidan so’ng qo’shinga qo’shiladi), yuksak bilimli muhandislar guruhi, ayollardan tuzilgan harbiy bo’linmalar bo’lgan. Sohibqironning jangovar qo’shining soni 200 000 ming atrofida bo’lgan, lekin Hilda Hukhemning ta’kidlashicha u bundan besh baravar ko’p qo’shinni yig’a oladigan darajada kuchga ega bo’lgan. Uzoq yillik harbiy yurishlar natijasida Temur saltanati chegaralari Sibirdan to O’rtayer dengizining qirg’oqlarigacha, Xitoydan to Fors ko’rfazigacha yetgan. Ulkan saltanat barpo qilgan, umrining asosiy qismini ot ustida o’tkazgan sarkardaning harbiy mahoratiga ortiqcha ta’rif berishning hojati bo’lmasa kerak. Zero u erishgan g’alabalar bundan darak berib turibdi.

Amir Temur Ko’ragon butun dunyoga faqat o’zining harbiy san’atinigina emas, balki g’oyat betakror me’morchilik yodgorliklarini ham meros qoldirgan. Har

---

<sup>5</sup> Hilda Hukhem, “Yetti iqlim sultoni”, Adolat nashriyoti. Toshkent – 1999, 56-bet

<sup>6</sup> Hilda Hukhem, “Yetti iqlim sultoni”, Adolat nashriyoti. Toshkent – 1999, 56-bet

bir zafarli yurishidan so'ng u albatta, biror-bir me'moriy obida bunyod ettirgan, vayron qilgan shaharlarini qayta tiklashga harakat qilgan (Bag'dod, Darband, Baylakon shaharlari shular jumlasidandir). Go'zal me'moriy inshootlar ham saltanatning dovrug'ini dunyoga yoyadigan omillardan hisoblangan. Shuning uchun ham Amir Temur "Agar kimda-kim bizning qudratimizga shubxa qilsa, biz qurgan binolarga boqsin" degan iborani ishlatgan. Temuriylar saltanatidagi me'moriy obidalar ichida eng ajralib turadiganlari bu "Amir Temur bog'lari" hisoblangan. Samarqand bog'lari haqida chet ellik tarixchilar quyidagi fikrlarni bildirib o'tishgan: "Jahon tarixida bog' yaratish san'ati bo'yicha Ahamoniylar sulolasidan so'ng, Sosoniylar sulolasi ham o'ziga xos usullarni joriy etgan, ammo bog' yaratish san'atining oltin na'munalarini faqat Samarqand bog'lari misolida ko'rishimiz mumkin".<sup>7</sup> Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bunday ijobiy fikrlar bildirilishi, bu bog'larning haqiqatda juda ajoyib bo'lganidan dalolat beradi. Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davrida shahar tashqarisida chor bog'lar yaratish odat tusiga kirgan edi. Barlos qabilasidan chiqqan bu o'g'lon Samarqandni bog'-shaharga aylantirib, uning shuhratini yanada oshirdi. Bu bog'larga har bir fuqaro kelib, Samarqandning oltinsimon shirin o'riklari, shaftolilaridan bahramand bo'lishi, dam olishi mumkin edi.<sup>8</sup>

Amir Temur bog'lari xususidagi dastlabki ma'lumotlar o'tmish tarixchilari, shoirlari, sayyohlari asarlarida uchraydi. Shuningdek, Amir Temur bog'lari O'rta asrlar rassomlari miniatyuralarida ham tasvirlangan. Amir Temur bog'lari tuzilishiga ko'ra 2 turga bo'lingan: 1) chorbog'lar – geometrik (to'rtburchak, to'g'ri to'rtburchak) shaklda bo'lib, har tomoni taxminan 1 km masofaga cho'zilgan. Sahnidan o'tgan ariqlar ularni teng 4 qismga ajratib turgan. Atrofidagi baland paxsa devorlarning har burchagida minora bo'lgan. Markazda saroy joylashgan. Bunday bog'larning darvozalari shahar tarafga qaratib qurilgan; 2) tuzilishi geometrik shaklda bo'lmagan, tabiiy daraxtzor va chakalaklar bag'rida barpo etilgan bog'lar. Bunday bog'lar hukmdor shikor (ov) qilishi uchun mo'ljallangan bo'lib, asosiy qismi tabiiy,

---

<sup>7</sup> "Amir Temur chet elliklar nigohida", G'ofur G'ulom nashriyoti. Toshkent – 2016, 59-bet

<sup>8</sup> "Amir Temur chet elliklar nigohida", G'ofur G'ulom nashriyoti. Toshkent – 2016, 59-bet

qo‘l tekkizilmagan holda saqlangan. Ularning kichik bir qismigagina dam olish uchun saroy, ko‘shk va chodirlar qurilgan, hovuzlar qazilib, favvoralar o‘rnatilgan. Bu turdagi bog‘larning o‘simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo‘lgan.

Amir Temur bog‘laridan eng mashhurlari quyidagilar:

Bog‘i Baland. Amir Temur Samarqandning shimolidagi Cho‘ponota maqbarasi yaqinida nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qurdirgan. Uni barpo qilishda Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlar bog‘chilik san‘ati ustalari hamda me’morlari qatnashgan. Bog‘ o‘rtasida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli qasr bo‘lib, uning atrofidagi uzumzor, anjirzor va olmazorlar boqqa go‘zal bir tarovat baxsh etib turgan.

Bog‘i Behisht. Amir Temur Samarqandning g‘arbida suyukli xotini Tuman og‘a (Xayrunniso)ga atab qurdirgan (1378). Yozma manbalarda "Bog‘i Jannat" nomi bilan ataladi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, bog‘ o‘rtasidagi atrofi xandak bilan muhofaza etilgan sun‘iy tepalik ustida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli saroy bo‘lgan. Saroyga bir necha ko‘tarma ko‘priklar orqali kirilgan. Saroyning bir tarafida hayvonot bog‘chasi ham bo‘lgan.

Bog‘i Davlatobod. Amir Temurga Hindiston yurishidan qaytgan kuni (1399 yil 22 aprel) hadya qilingan. Arxeologik tadqiqotlar (I. A. Suxarev, 1936 va O‘. Alimov, 1967)ga ko‘ra, u Samarqanddan 13 km janubida, Katta O‘zbekiston traktining chap tomonida bo‘lgan. Amir Temur bu bog‘da zafarli yurishlardan qaytgach, dam olgan, tantanali marosimlar o‘tkazgan, elchilarni qabul qilgan. Arxeologik qazishlar natijasida bog‘ning 1350x900 m maydonini egallagani, atrofi baland paxsa devor bilan o‘ralgani va unda ariqlar, 4 hovuz (biri 62x28 m, ikkitasi 25x25 m, yana biri 32x32 m) hamda saroy (poydevori 70x70 m) bo‘lgani aniqlandi. Saroy sun‘iy tepa (bal. 12 m) ustiga qurilgan, atrofi xandaq (eni 20 m) bilan o‘ralgan. Unga 2 ta ko‘tarma ko‘prik orqali kirilgan.

Bog‘i Dilkusho (Ko‘ngil ochuvchi bog‘). Amir Temur xotinlaridan biri – To‘qalxonim sharafiga qurdirgan (1397). Samarqanddan 5 km sharqda, Panjakent yo‘lining o‘ng tomonida (qadimgi Hinduvon qishlog‘i o‘rnida) joylashgan. Har tarafi 900 m uzunlikdagi baland paxsa devor bilan o‘ralgan, 4 darvozasi, markazida

hashamatli saroy bo'lgan. Saroy uch qavatli bo'lib, har qavatida favvora otilib turgan. Saroy devorlariga Amir Temur olib borgan urushlardan lavhalar chizib qo'yilgan. Amir Temur Ispaniya elchisi Rui Gonzales de Klavixoni ana shu bog'da qabul qilgan. Bu bog' o'rnida hozir Dilkusho qishlog'i joylashgan.

Bog'i Jahonnamo (Jahon ko'zgusi). Amir Temur Samarqanddan 7 farsax (42 km) narida, Zarafshon tog'i etagida qurdirgan (1398). Unda saroy va qal'a bo'lgan. "Zafarnoma"da yozilishicha, bu bog'ning hududi benihoyat katta bo'lib, yo'qolib qolgan ot 6 oydan so'ng topilgan ekan.

Bog'i Maydon. Amir Temur Samarqandning shimolida, Cho'ponota tepaligi etagida qurdirgan. Tarixiy manbalarga Karaganda, bog'da hashamatli bir ayvon (ko'shk) va qimmatbaho toshlardan yasalgan taxt bo'lgan. Mirzo Ulug'bek bu bog'ni yanada obod qilgan. Bobur shu haqda bunday deb yozadi: "Bu bog'ning o'rtasida (Ulug'bek) bir oliy imorat qilibdur. Chil(qirq) sutun derlar, du (ikki) oshyona (qavat), sutunlari tamomi toshdin. Bu imoratning to'rt burchida to'rt manordek burjlar qo'porib turlarkim, yuqorig'a chiqar yo'llar bu to'rt burjdindur. O'zga tamom yerlarda toshdin sutunlardir. Ba'zini morpech xiyora (burama, ko'pqirrali) qilibturlar. Yuqorigi oshyonaning to'rt tarafi ayvondir, sutunlari toshdan. O'rtasi chordora uydur. Imorat kursisini tamom toshdan farsh qilibdirlar". Bu bog' o'rni hozir ham Bog'i Maydon deb ataladi.

Bog'i Nav (Yangi bog'). Amir Temur Samarqandning janubida qurdirgan (1404). Lolazor qishlog'i o'rnida joylashgan. Bu bog' to'rtburchak shaklda bo'lib, atrofi baland paxsa devor bilan o'ralgan, har burchagida minora qad ko'tarib turgan. Markazida boshqa bog'lardagiga nisbatan kattaroq qasr, uning oldida hovuz bo'lgan.

Bog'i Chinor. Amir Temur Samarqandning sharqida (Konigilning janubi-g'arb tarafida, hozirgi "Qo'sh tamgalik" tepaligi o'rnida) barpo qildirgan (1404). Unda chinorlar ko'p bo'lgan. Markazida xochsimon tarxli saroy joylashgan.

Bog'i Shamol. Amir Temur 1397 yil nabirasi (Mironshohning qizi)ga atab qurdirgan. Samarqandning g'arbida bo'lgan. Undagi saroy to'rtburchak shaklda bo'lib, har tomoni 1500 qadamni tashkil qilgan. Devorlariga marmar qoplanib, sahni

qora yog‘och va fil suyagidan ishlangan. Bu bog‘ joylashgan hudud va u yerdagi ariq hozir ham "Bog‘i Shamol" deb ataladi.

Samarqand atrofida bulardan tashqari yana bir qancha bog‘lar bo‘lgan. Chunonchi, Bog‘i Bo‘ldu, Bog‘i Zog‘on, Bog‘i Naqshi Jahon, Bog‘i Amirzoda Shohrux, Bog‘cha, Bog‘i Dilafro‘z, Bog‘i Sheron, Gulbog‘, Lolazor, Bedana qo‘rug‘i, Chumchuqlik, G‘ozxona va boshqa shular jumlasidandir. Amir Temurning bog‘ qurish an‘anasini temuriylardan Shohrux, Ulug‘bek, Bobur va boshqa ham davom ettirishgan.<sup>9</sup>

Muxtasar qilib aytganda, buyuk bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Barqul o‘z hayot yo‘li davomida yetti iqlimni bo‘ysundirdi, ulkan sarhadlarga ega bo‘lgan qudratli saltanat barpo qildi, davlat ishlarini adolat tamoyillariga asoslanib boshqardi, ilm-fanga, me‘morchilikka, obodonchilikka boshqosh bo‘ldi, xalq farovonligiga erishildi. Bu yutuqlar Sharqda yangidan “Renessans” boshlanishiga turtki bo‘ldi, va bu “Temuriylar Renessansi” (XIV-XV asrlar) nomini oldi. Uning vujudga kelishi Osiyo mamlakatlaridan tortib butun dunyoga o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatdi. Hozirgi kunga kelib, Amir Temurning buyuk xizmatlaridan butun dunyo minnatdor, hatto, bobomizga atab Parijda “Amir Temur merosini o‘rganish jamg‘armasi” ham tashkil etilgan. Ishonamizki Sohibqiron Amir Temurning ibratli hayot yo‘lini yoritishga bag‘ishlangan asarlar hali ko‘p yoziladi va bizlar bu tarixiy shaxs haqida yangi-yangi ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz.

---

<sup>9</sup> “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti. Toshkent, “A” harfi, 430-bet